



G‘AFUR G‘ULOM IJODIYOTI

G‘ulomjonov Hakimbek Shavkatjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-bosqich talabasi

“M.Najimov” ilmiy maktabi a’zosi

Telefon: + 998 (90) 840 22 03

E-mail: hakimbegulomjonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi G‘afur G‘ulomning o‘zbek adabiyotida tutgan beqiyos o‘rnii, uning takrorlanmas asarlari, she’rlari va badiiy mahorati haqida olimlarning firkalariga asoslangan va chuqur yondashilgan holda fikr yuritilgan. Shuningdek, adibning serqirra ijodkorligi haqida fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: adib, abadiyat, adabiyot, an’ana, ijtimoiy hodisa, ziylolar, ma’rifat, mafkuraviy, muhabbat, yoshlik, insonparvarlik, istiqbol, e’tiqod, haq-huquqlar.

Har bir zamon va asr o‘tib borar ekan, har birida o‘z sohasining takrorlanmas shaxslari: olimlari, shoirlari, faylasuflari, boshqaruvchilarida ko‘rishimiz mumkin. XX asrda ham ana shunday buyuk inlolarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Ulardan biri o‘zbek adabiyotining yorqin vakili, bolalar asarlarining betakror yaratuvchisi, insonparvarlik, vatanga muhabbat kabi oliy insoniy tuygular kuychisi G‘afur G‘ulom hisoblanadi, desam adashmagan bo‘laman. Milliy adabiyotimizda adibning yaratgan asarlari tutgan o‘rniga to‘xtaladigan bo‘lsak, ulkan adabiy merosimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

G‘afur G‘ulomning ilmiy-publisistik sohadagi adabiy xazinasi ko‘lami ham yozuvchining mahoratidan darak berib turadi. Ular haqida gapirar ekanmiz akademik Naim Karimovning ushbu fiikrlarini eslab o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi, “G‘afur G‘ulomning ilmiy-publisistik merosi shoir 10 jildlik 7- va 8-jiddlari, 12 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”ning esa 7-, 11- va 12-jiddlaridan o‘rin olgan. Bu qariyb oltmish-yetmish bosma taboqdan iborat asarlarning to‘rtadan uch qismi adabiyot, tarix san’at masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ulardan g‘afurona yuksak ilmiy-falsafiy tafakkur nurlari taralib, bizni hayratga solib turadi. Bizni hayratga soladigan masalalardan biri va asosiysi shundaki, G‘afur G‘ulom madrasa ta’limidan boshqa biror zamonaviy oliy, hatto o‘rtta o‘quv yurtida ham tahsil olmagan. Lekin u



butun umri davomida arab va fors tillari bo'yicha bilimini mukammallashtirish, adabiyot, tarix, falsafa va boshqa sohalar bo'yicha bilimini oshirish bilan mashg'ul bo'lgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida, Respublika viloyatlaridagi O'lkashunoslik va Adabiyot muzeylearida uning nigohi tushmagan birorta noyob qo'lyozma qolmagan¹. Akademik N.Karimovning ushbu fikrlarida G'afur G'ulomning ilmiy publitsistik mahorati va merosi bilan birgalikda adibning bilim olishga bo'lgan so'nmas qiziqishini va intilishini ham aytib o'tmoqda. Yozuvchining ushbu fazilatini hozirgi zamon yoshlariga o'rak qilib ko'rsatsak bo'ladi. Chunki G'afur G'ulom o'z zamondagi qiyinchiliklarga va yo'qchiliklarga qaramay ilm izlanish yo'lida bo'lgan ekan. Bugungi kunda esa yoshlarga bilim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan, hattoki bizning zamонимизда bularning barchasi tekin, ya'ni davlat tomonidan qoplab berilmoqda. Yozuvchi G'afur G'ulom zamonda esa bunday imkoniyatlar yo'qligiga qaramay u o'zidan o'chmas iz va ulkan meros qoldirishga muvaffaq bo'ldi.

Tarix zarvaraqlariga qaraydigan bo'lsak, G'afur G'ulom yashagan davrda yurtimizda ko'plab mashhur siymolar yetishib chiqqanligiga guvoh bo'lamiz. Ulardan Oybek, Hamid Olimjon, Uyg'un va Bedniylarni aytishimiz mumkin. Lekin shunday bo'lsa ham ularning orasida G'afur G'ulom ijodiyoti yaqqol ajralib turadi. Uning adabiy merosi haqida O'zbekiston Respublikasi San'at arbobi Ibrohim G'afurov, "G'afur G'ulomning juda boy ijodiy-ilmiy merosiga to'g'ri baho bermoq, uning zamirida – mundarijasi va g'oyalar oqimida nimalar hukmon kuch bo'lib yotganligini anglamoq uchun, albatta XX asrda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning bu xususiyatlarini bilmoq va tushunmoq zarurdir. Umuman sotsialistik zamonda yashab ijod qilgan barcha madaniyat, san'at, adabiyot namoyandalarining merosiga murojaat qilganda ularga bevosita yoki bilvosita ko'rsatib kelingan tazyiq va mafkuraviy zo'ravonliklarni bir zum ham yoddan chiqarmaslikka to'g'ri keladi. Lekin har qanday mafkuraviy ziddiyatlardan qat'i nazar, ular asl o'zbek adabiyoti va madaniyatining quruvchilari - G'afur G'ulom tili bilan aytganda "Zamonasining yaratuvchilari" xalq va mamlakat taqdiri uchun qayg'urgan yorqin peshqadam namoyandalaridir². Ushbu ma'lumotlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, adibning asarlari, umujan ijodini tushunish, undagi tilga olinayotgan mavzuning asosini anglash uchun, avvalo G'afur G'ulom yashagan davr va siyosiy vaziyatni inobatga olgan holda tahlil qilish lozim. To'g'ri, hozirgi kunda adibning asarlarini noto'g'ri talqin qiladigan, uning ijodining keskin tanqid

¹ Toshkent davlat yuridik universiteti, "G'afur G'ulomning badiiy mahorati", -2021. 3-4-betlar.

² Toshkent davlat yuridik universiteti, "G'afur G'ulomning badiiy mahorati", -2021.



qiladiganlar ko‘plab topiladi. Ammo aynan shu shaxslar bunday mulohazaga barcha jihatlarni inobatga olmagan holda kelishgan deb o‘ylayman. G‘afur G‘ulom ijodini o‘rganishda albatta barcha tomonlarni ko‘ra va bila olgan o‘quvchi ulardan asl ma’noni anglashi mumkin.

G‘afur G‘ulom yozuvchi bo‘lishi bilan birgalikda tarixchi olim, donishmand inson va betakror shoir ham edi. Adib “Vatanim - O‘zbekiston” maqolasining o‘tmishga bag‘ishlangan qismida xalqimiz uchun bundan keyin ham saboq bo‘lib qoladigan tarixiy voqealarga e’tibor qaratgan, g‘oyat muhim ijtimoiy masalalarni ko‘targan. Bu masalalar uning qomusiy bilim sohibi sifatidagi obraziga muhim chizgilar qo‘sibingina qolmay, uning yuqorida ta’kudlab o‘tgan xislatlar sohibi bo‘lganidan ham shahodat beradi.

Ushbu maqolada ifodalangan ayrim fikrlar G‘afur G‘ulomning “Navoiy va zamonamiz” (1948) maqolasida ham aks sado berib turadi. “Ulug‘ ulamolarning, - deb yozadi shoir, - bashariyatni oldinga yetaklaganda chekkan zahmatlari, aytgan so‘zлari, bayon qilgan fikrlari hech qachon o‘z qadr manzalatini yo‘qotmaydi. ... Navoiyning bu fikrlari yozilgan asrda temuriy shahzodalar bobolari tomonidan bosib olingan bir talay o‘lkalar va ularning mazlum xalqlari ustidan hukmronlik yurgizar edilar. Boshqa o‘lkalarning noz-ne’mati va shu yerdagi xalqlarning qullarga xos tekin mehnati soyasida ayshu ishrat kayfu safo shu shahzodalarning qulog‘iga Navoiyning so‘zлari kirmas edi, qalblariga zarracha ta’sir qilmas edi. Bu g‘oyatda tabiiy, Navoiy bu oliy fikrlarni bir turkum feudal shahzodalar, bek-bekvachchalar uchun emas, balki umumbashariyat uchun yozgan edi”³. Bundan ko‘rinadiki G‘afur G‘ulom shoir va yozuvchi bo‘lishi bilan bir qatorda haqgo‘y tarixchi ham bo‘lgan.

Adibning she’rlari haqida gapiradigan bo‘lsak, 1923-yil yozilgan “Feliks farzandlari” she’rida yetim bolalar haqida gapirarkan, unda yozuvchi o‘z hayotini ifodalaydi, “Maorif va o‘qituvchi” oynomasida esa “Go‘zallik qayerda” nomli ikkinchi she’ri nashr qilinadi. Birin-ketin she’riy to‘plamlari bosmadan chiqadi: “Dinamo”, “Xitoy suratlari”, “Biz sizlar bilan tirikmiz”, “Jonli qo‘shiqlar”, “Sizga”, “Sovg‘a”, “Tong qo‘srig‘i”, “Qo‘qon” dostoni va boshqalar.

“Sen yetim emassan” (1942), “Qayg‘u” (1942), “Biri biriga shogird, biri biriga ustod” (1950), “Sizlarga - yoshlar” (1947), “Bahor taronalari” (1948) kabi asarlari hozirgi kunda adabiyot ishqibozlari qo‘ldan qo‘yilmay o‘qilib kelinmoqda.

G‘afur G‘ulomni butun elga tanitgan, unga xalqning muhabbatini uyg‘otgan “Netay”, “Tirilgan murda”, “Yodgor” va ayniqsa, “Shum bola” kabi nasriy

³ G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami . XI jild. 102-103-betlar.



asarlarining mazmun-mohiyatida yetimlik, uning sarguzashtlari, yetimlikdan qutilish, uni yengib o'tishdagi urinish va intilishlari turadi. Adibning yoshlik paytidanoq yetim qolganligi ko'plab adabiyotlarda keltirilgan. G'afur G'ulom yetimlik nimaligini hammadan ko'ra yaxshi bilgani uchun yetimlar va yetimlik taqdirini yuqorida sanab o'tilgan asarlar orqali mislisiz bir hamdardlik bilan yozadi, o'zida tiganmas, yo'qolmas, bitmas insonparvarlikni kasb etadi.

Hozirgi kunda adib G'afur G'ulom haqida ko'plab zamonaviy olimlar, professorlarning bildirgan munosabatlari, fikrlari va qarashlarini uchratishimiz mumkin. Ularning aksariyati yozuvchi haqida qimmatli ma'lumotlar ham keltirib o'tgan. Masalan, filologiya fanlar doktori professor Abdug'ofur Rasulov o'zining G'afur G'ulom haqidagi ko'plab izlanishlari va maqolalarida yozuvchining ulkan adabiy merosi haqida bir qancha ma'lumotlarni berib o'tgan. U o'zining bir maqolasida, - "Xalq baxtining otashin kuychisi" portret-maqola G'afur G'ulomning ham inson, ham san'atkor sifatidagi mohiyatini yoritib beradi. Portret janri qahramon qalbining tub-tubiga, ijodning ildiz-ildiziga boqishni taqzo qiladi. O.Sharofiddinov G'afur G'ulom ijodining mazmun-mohiyatini xalqchillik, o'zbekona tafakkurda deb biladi. G'afur G'ulom, aytish mumkinki, o'z shaxsida butun xalqni qamrab olgan, ijodida o'zbekning to'la-to'kis mohiyati, qalbini aks ettrigan"⁴, deya ma'lumotlar keltirib o'tgan.

Adib ijodiyoti haqida qancha o'rgansak, shuncha kam deb hisoblayman. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, G'afur G'ulom siyomsida bolalar yozuvchisi, vatanparvarlik va insoniylik kuychisi, haqgo'y tarixchi va yana bir qancha xislatlar sohibini uchratishimiz mumkin. Uning hayot yo'li davomida qoldirgan adabiy xazinasi, o'ylashimcha, hali uzoq uzoq yillargacha tillarda doston bo'laveradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Toshkent davlat yuridik universiteti, "G'afur G'ulomning badiiy mahorati", - 2021. 3-4-betlar.
2. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami . XI jild. 102-103-betlar.
3. G'afur G'ulom va davr. "G'afur G'ulomning yangi o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent: Universitet 2003.

⁴ G'afur G'ulom va davr. "G'afur G'ulomning yangi o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent: Universitet 2003.